

AHOLIGA LOGISTIKA XIZMATINI KO'RSATISHNING NAZARIY ASOSLARI

M.Tinicheva, talaba
Qarshi muxandislik iqtisodiyot instituti

Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan dolzarb masalalarni o'z ichiga olayotgan Strategiyalar O'zbekiston Respublikasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bu orqali xalqimiz turmush sifati va aholi farovonligi oshmoqda. Ayniqsa, yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish, yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish kabi masalalarning barchasi aholi farovonligi uchun judayam muhimdir.

Yuqoridagi masalalar ichida transport xizmatlarini ko'rsatish sohasi ham bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu esa logistika bilan bog'liqdir. Shu bois, har yili qabul qilinadigan davlat dasturlarida ham transport logistikasi masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, 2019 yil 1 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilingan. Farmonga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilab berildi:

- transportning barcha turlarini O'zbekiston Respublikasi yagona transport tarmog'iga integratsiyalashtirish va yangi samarali transport-logistika tizimlaridan foydalanish asosida birgalikda rivojlantirishga yo'naltirilgan yagona davlat transport siyosatini ishlab chiqish;

- transport va logistika xizmatlari bozorini rivojlantirishni rag'batlantirish, ularning barcha toifadagi iste'molchilar uchun ommabopligini ta'minlash, shuningdek, sohaga investitsiyalarni jalb etishga yo'naltirilgan transport sohasidagi yagona tarif siyosatini amalga oshirish;

- xalqaro transport koridorlarini rivojlantirish, logistika tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va chora- tadbirlarni amalga oshirish, mamlakat transport salohiyatidan samarali foydalanish, tadbirkorlik subyektlarining transport-logistika xizmatlaridan foydalanishdagi sarf-xarajatlarini kamaytirish;

- transport va yo'l xo'jaligi sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish va mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish;

- butun transport tizimini raqamlashtirish bo'yicha ilg'or axborot texnologiyalarini joriy etish, O'zbekiston Respublikasi transport tizimining bir-biriga bog'langan yagona tizimini istiqbolli rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- avtomobil yo'llari sohasida yagona texnika siyosatini amalga oshirish, foydalanuvchilar manfaatini hisobga olgan holda, avtomobil yo'llari, aerodromlar va aeroportlar, vokzallar, temir yo'llar va transport infratuzilmasining boshqa obyektlarini moliyalashtirish, loyihalash, qurish, ta'mirlash va foydalanish masalalarining kompleks yechimini ta'minlash;

- transport sohasida nazoratni amalga oshirish, fuqaro aviatsiyasi va eksperimental havo kemalaridagi halokatlar va baxtsiz hodisalarni, shuningdek, temir yo'l vadaryo transportidagi avariya va halokatlar bo'yicha tekshiruvlarni tashkil etish va amalga oshirish;

- transport va yo'l xo'jaligi sohasidagi xalqaro va hududiy hamkorlikni rivojlantirish hisobidan jahon transport xizmatlari bozorida O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini ta'minlash;

- transport sohasidagi joriy va istiqbolli ehtiyojlarni inobatga olgan holda, ta'lim, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or usullarini tizimli ravishda joriy etish. Bundan tashqari transport vazirligining tarkibida transport va logistikani rivojlantirish muammolarini o'rganish markazi ham o'z ish faoliyatini olib boradi.

Logistikaning o'zi nima va uning tarixi to'g'risida qisqa so'z yuritib, kelgusi ilmiy tadqiqotlarimizda logistika va uning hisobi bilan bog'liq masalalarni tadqiq qilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Logistika tushunchasi oldinlari judayam tor doiradagi mutaxassislar tomonidan talqin qilingan bo'lsa, bugungi kunga kelib judayam keng doirada qo'llanilmoqda.

Bugungi kunda logistika sohalari qamrovi bo'yicha yangi bo'lishiga qaramasdan barcha sohalarni qamrab olmoqda. Logistika tushunchasi oziq-ovqatlarni taqsimlash ma'nosida ham ishlatilgan. Ko'pchilik manbalarda logistika so'zi harbiy ishga bog'lanadi. YA'ni, qadimiy Gretsiyada harbiy xizmatda 10 ta logistika bo'lgan. Rim imperiyasida ham harbiy xizmat logistik ma'nosini beruvchi xizmatchilar bo'lgan.

Logistiklarning asosiy vazifasi oziq-ovqat mahsulotlarini taqsimlash bo'lgan. Qadimiy Afinada logistik kasbi egalari har yili tasodifiy tanlash orqali shakllantirilgan. Ularning vazifasi boshqa davlat xizmatchilari hisobotlarini tekshirish bo'lgan. Umuman olganda logistika tushunchasi qadimiy Gretsiyada «Hisoblash san'ati» deb ham atalgan.

Ayrim manbalarda logistika miloddan avvalgi IV asrda Gretsiyada paydo bo'lgan. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida logistika – hisoblash, muhokama san'ati deb yozilgan. Boshqa bir manbaning ma'lumot berishicha, Vizantiya imperiyasi IX asrda paydo bo'lganligini aytishadi. Soliqlarni hisoblash va taqsimlashni boshqarishda foydalanilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Logistika bo'yicha birinchi ilmiy ish muallifi fransuz, harbiy mutaxassis Djomini hisoblanib, logistika atamasiga harbiy tomonlama yondashib o'z mualliflik ta'rifini keltirgan. U logistika tushunchasi ko'p narsani qamrab olishi bilan birga harbiy sohada rejalashtirish, boshqarish eng

muhimi ekanligini ta'kidlaydi. Ma'lumotlarga qaraganda Napoleon Bonapart o'z armiyasida harbiy soha ta'minotini o'z vaqtida to'g'ri boshqarish borasida logistika tamoyillarini qo'llagan. Logistika ikkinchi jahon urushi davrida harbiy ishlab chiqarish, transportda yetkazib berish kabilar orqali harbiy sohada yanada taraqqiy etib yaqqol namoyon bo'ldi. Yigirmanchi asrning 60-yillarida dastavval harbiy sohada qo'llanib kelinayotgan logistika tushunchasi asta-sekinlik bilan xo'jalik sohasiga, undan keyin butun ishlab chiqarishga yoyila boshlandi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida logistika tushunchasi iqtisodiyot sohasiga kirib kela boshlandi. Bugungi kunda harbiy sohada deyarli qo'llanilmaydigan logistika atamasi iqtisodiyot, xizmat ko'rsatish, biznesda ko'p qo'llanilib kelinmoqda. Ayniqsa, tashish, jumladan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni va yo'lovchilarni tashish sohasida logistikaning ahamiyati beqiyos ekanligi e'tirof etilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda tovarlarni yetkazib berishning yangi usul va shakllari joriy qilinmoqda. Xorijiy tadqiqotlarda aytilishicha, tadbirkorlik faoliyatida logistikani belgilashda asosiy ikkita umumiy yo'nalishga ajratish mumkin.

Birinchi yo'nalish tovarlar harakati bilan bog'liq bo'lib, bu yerda tovarlar ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazib beriladi.

Ikkinchi yo'nalish tovarlar harakati bilan bog'liq operatsiyalarni boshqarishga borib taqaladi. Bunda yetkazib beruvchilar va iste'molchilar bozori tahliliga asoslanib, tovar va xizmatlarga bo'lgan talab va taklif, tovar harakati ishtirokchilari qiziqishlarini rivojlantirishga qaratiladi. Shu bois, logistikaning yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlaridan kelib chiqib, bir qancha qarashlar yuzaga kelgan. Jumladan, professor G.Pavellek va AQSH milliy kengashi xodimlari tomonidan materiallar taqsimotini boshqarishga asosiy urg'u berib, logistika korxonaga kelib tushadigan, qayta ishlanadigan va chiqib ketadigan hamda ma'lumotlarga mosligini rejalashtirish, boshqarish, nazoratni amalga oshirish deb ta'kidlashadi.

Fransuz iqtisodchilari logistikaning iqtisodiy ahamiyatini ochib berishga harakat qilishadi. Bir guruh fransuz olimlarining fikricha, logistikaning mohiyati kamroq xarajat qilish asosida kerakli miqdor va sifatdagi mahsulotni olish uchun belgilangan vaqt va joyda turli xildagi faoliyatni amalga oshirish deya ta'kidlanadi. Germaniyaning «Danzas» Transport-ekspeditorlik firmasi ma'lumotnomasida, logistika har qanday korxonada tomonidan optimal foyda olish maqsadida material resurslarini korxonada ichidagi va uning tashqarisidagi harakatini tezlashtirishdan, ya'ni xom ashyoni sotib olish, ishlab chiqarish, iste'molchiga yetkazib berish tizimini o'z ichiga olishi keltirilgan. Logistikaga berilgan tushunchalarga qaraydigan bo'lsak, uning iqtisodiy, moliyaviy tomoni bilan birga boshqarish, nazorat tomonlarini ham ko'rishimiz mumkin.

Professor Pfolem material xarajatlarini qisqartirish, ular harakatini rejalashtirish hamda nazorat qilish logistikaning belgisi ekanligini ta'kidlaydi. Ko'plab ilmiy tadqiqotlarda sohalardan kelib chiqqan holda logistika tushunchasiga o'z munosabatlarini bildirib kelmoqdalar. Logistika tor ma'noda mahsulotlarni, iste'molchiga yetkazib berish ma'nosida keladigan bo'lsa, amaliyotda esa bu tushunchaning naqadar kengayib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Tadqiqotlarda logistika keng tushuncha ekanligi qayd etilib, mutaxassislar tomonidan turlicha

yondashilgan. Transportda tashish, ortish-tushirish, ombordagi kirimi va chiqimini yuritish kabi tor ma'noda tushunmaslik lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda logistikani material oqimini birlamchi manbasidan oxirgi iste'molchisiga yetkazib bergunga qadar tovar harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish asosida boshqarish tushuniladi. Shu bois, tadqiqotchilar M. Porter, D. Stoklar logistika o'z an'anaviy mohiyatidan allaqachon chiqib ketganligini ta'kidlab, korxonani strategik boshqarish va rejalashtirishda katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Fransuz iqtisodchilari E. Mate va D. Tiksyé esa logistika tadbirkorlik harakatining markazida bo'lishi lozim va u firma umumiy siyosatini belgilab beruvchi eng muhim faktorlardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Angliyalik tadqiqotchilar D. Benson va Dj. Uaytxedlarning fikricha, logistika bozorni tadqiq etish va prognoz qilish, ishlab chiqarishni rejalashtirish, xomashyo, material va uskunalarni sotib olish, tovar harakati bilan bog'liq operatsiyalarni nazorat qilish, sotib oluvchilarga xizmat ko'rsatishni o'rganishni ham o'z ichga oladi. Yana bir guruh angliyalik tadqiqotchilar M. Kristofer va G. Uils logistikani nafaqat korxonaga uchun, balki tarmoqlar uchun ham foydali hisoblaydilar. Ular korxonalar va omborlar masalalarini yechimiga qarab, tarmoqlar bo'yicha qarorlar qabul qilish lozimligini ta'kidlaydilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda g'arb olimlari logistikani bir qancha turlarga bo'ladilar. Jumladan, materiallar ta'minoti bilan bog'liq logistika, ishlab chiqarish logistikasi, marketing yoki taqsimlovchi logistika va har bir logistika turining ajralmas qismi bo'lgan transport logistikasiga bo'lishadi. Albatta turli olimlar tomonidan logistikaning turlari va uning ko'lami to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ammo, logistikaning bugungi kundagi mohiyatidan kelib chiqib, uni kengaytirish va har birini asoslash mumkin. Logistika olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar va ularning natijasi ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh olimlar tomonidan logistika alohida xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining yo'nalishi sifatida ishlab chiqarish jarayonida materiallar oqimini boshqarish deb ta'riflangan bo'lsa, ikkinchi guruh tadqiqotchilar tomonidan fanlararo ilmiy yo'nalish sifatida materiallar oqimi samaradorligi va uni oshirishning yangi imkoniyatlarini qidirishga qaratilgan.

Logistika tushunchasiga termin sifatida A.N. Rodnikovning adabiyotida batafsilroq va davrlar bo'yicha o'zgarishlar asosida yig'ilgan ma'lumotlarga asoslangan holda berilgan. O'zbekistonlik olim A. Aliqulov o'z tadqiqotida paxta tolasini ishlab chiqarish va tayyorlash, xarajatlar hisobi hamda tahlilida logistika konsepsiyalaridan foydalanish masalalarini yoritgan. Tadqiqotchi tomonidan logistikaga fan sifatida munosabat bildirilib, quyidagicha mualliflik ta'rifi keltirilgan: «Logistika axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va yetkazib berish asosida material oqimlari harakatini rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish hamda ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini bir-biri bilan optimal bog'lanishini ta'minlovchi fandır». Bundan tashqari tadqiqotchi logistikaning bugungi kunda qo'llanilayotgan to'rtta konsepsiyasi haqida ma'lumot bergan. Ularga umumiy logistik xarajatlar konsepsiyasi, logistikada biznes jarayonlarining reinjiningi konsepsiyasi, logistikaning yaxlitlangan strategiyasi konsepsiyasi, mol yetkazib berish zanjirini boshqarish konsepsiyasini kirishi ma'lumotlar asosida keltirgan.

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning keyingi bosqichlarida barcha sohalar kabi, logistika masalasiga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda transport logistikasining rivojlanib borishi va bu borada qilinayotgan ishlar, logistika markazlarini tashkil etilishi, ular tomonidan xizmatlar ko'rsatish sifatining oshirilishi muhim qadamlardan biridir.

O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR SOHASI ISLOHOTLAR MARKAZIDA

L.Raupova, talaba
Qarshi muxandislik iqtisodiyot instituti

Xizmatlar maxsus tovar sifatida uning bozorini maxsus shartlar asosida amal qilishini talab etadi. Ayniqsa, maishiy xizmatlar bozori o'zining xususiyatlariga ko'ra shahar va qishloqlarda bir-biridan farqlanadi. Bu farqlanishlar maishiy xizmatlarni tashkil etilish xususiyatlari, xizmatlar infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi, aholi daromadlari darajasi va h.k.larga bog'liq. Ishda maishiy xizmatlar bozorini qishloq joylarda rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tildi

O'zbekiston uchun xizmatlar sohasi iqtisodiy faoliyatning nisbatan yangi yo'nalishidir. Respublika informatsion tizimi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni milliy hisobchilik tamoyil (prinsip)lari asosida shakllantirishga o'tishi tufayli uning ahamiyati tobora oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev rahbarligida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish lozimligi ta'kidlangan.

Harakatlar strategiyasida ko'rsatilganidek, quyidagilarni amalga oshirish ko'zda tutildi:

- yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirishga erishish;

- qishloq aholi punktlarida xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirish, birinchi navbatda kommunal-maishiy, uy-joylarni ta'mirlash va qurish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash;

- xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlarning faolligini kuchaytirish uchun shart-sharoitlar yaratish, oilaviy tadbirkorlik subektlariga kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari orasidan yoshlarni jalb etish;

- aholi o'rtasida xizmatlarning talab yuqori bo'lgan yangi, istiqbolli konsalting, bank, moliya, sug'urta, lizing va baholash kabi turlarini jadal rivojlantirish;

- har bir hududning xususiyatlaridan kelib chiqib, xizmat ko'rsatish sohalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasining ulushi oshib borishiga erishish maqsadida shart-sharoitlar yaratish;